



## ALVEOLYAR SUYAK ATROFIYASIDA SINUS-LIFTING USULLARINING IMPLANTOLOGIK REABILITATSIYADAGI O'RNI

**Karegdiev Jasurbek Rayimkulovich**

*Buxoro shaxar R.K.Dental xususiy stomatologiya shifoxonasi oliy toifali xirurg-  
stomatolog*

Yuqori jag' implantatsiyasida alveolyar suyak to'qimasining atrofiyasi implantat o'rnatish imkoniyatlarini cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1]. Qisman adentiya holatlarida suyak rezorbsiyasi va yuqori jag' pazuxasining pnevmatizatsiyasi implantatsiya uchun yetarli anatomik sharoitni ta'minlamaydi [2].

Sinus-lifting operatsiyasi yuqori jag' pazuxasi shilliq qavatini ko'tarish va hosil bo'lgan bo'shliqni kostnoplastik materiallar bilan to'ldirish orqali suyak hajmini oshirishga qaratilgan samarali jarrohlik usuli hisoblanadi [3]. Ushbu metod implantatsiya uchun zarur anatomik sharoit yaratib, implantatlarning barqaror osteointegratsiyasini ta'minlaydi [1,3].

So'nggi yillarda sinus-liftingda autogen va sintetik kostnoplastik materiallar qo'llanilib, ularning klinik samaradorligini baholash implantologiya amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda [2].

### **Materiallar va usullar**

Tadqiqot doirasida yuqori jag'ning distal bo'limlarida alveolyar suyak atrofiyasi kuzatilgan bemorlarda ochiq sinus-lifting operatsiyalari tahlil qilindi. Suyak hajmini oshirish maqsadida autogen va sintetik kostnoplastik materiallardan foydalanildi.

Barcha bemorlarda operatsiyadan oldin klinik va rentgenologik tekshiruvlar o'tkazildi. Sinus-lifting jarayonida yuqori jag' pazuxasi shilliq qavati ko'tarilib, hosil bo'lgan bo'shliq tegishli kostnoplastik material bilan to'ldirildi. Implantatsiya belgilangan muddatlarda amalga oshirilib, bemorlar uzoq muddatli kuzatuvga olindi.

### **Natijalar**

Kuzatuv natijalari har ikkala usulda ham implantatlarning muvaffaqiyatli osteointegratsiyasini ko'rsatdi. Autogen material qo'llanilgan holatlarda suyak regeneratsiyasi yuqori darajada kechdi, ammo donor sohada qo'shimcha noqulayliklar kuzatildi.

Sintetik materiallar qo'llanilgan bemorlarda esa operatsiyadan keyingi davr yengil kechdi, jarrohlik travmatizmi kamaydi va reabilitatsiya muddati qisqardi.

### **Muhokama**

Olingan ma'lumotlar sinus-lifting usulining implantologik reabilitatsiyada muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi. Sintetik kostnoplastik materiallar autogen suyakka munosib alternativa bo'lib, klinik samaradorlik va bemorlar uchun qulaylikni ta'minlaydi.



### **Xulosa**

Sinus-lifting operatsiyasi yuqori jag' alveolyar suyak atrofiyasi mavjud bemorlarda implantatsiya uchun samarali sharoit yaratadi. Kam invazivlik va barqaror natijalar ushbu usulni implantologiya amaliyotida keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Зицманн Н., Шерер П. Стоматологическая реабилитация с помощью дентальных имплантатов. – М.: Азбука, 2016. – 136 с.
2. Бер М. Устранение осложнений имплантологического лечения. – М.: Азбука, 2017. – 356 с.
3. Лянг М. Синус-лифт: от закрытого синус-лифта до синус-имплант-стабилизатора. – Львов: ГалДент, 2018. – 100 с.